

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

SAMARQAND – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Navoiy viloyati Turizm boshqarmasi

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Turizmni rivojlantirish instituti

Qozon Federal universiteti

Tambov davlat universiteti

L.N.Gumilev nomidagi Evroosiyo milliy universiteti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“TURIZM” KAFEDRASI

“TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

Konferensiya, O‘zbekiston Respublikasi Perezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135 sonli Qarori ijrosi yuzasidan o‘tkazildi

(2024-yil 25-oktabr)

SAMARQAND-2024

Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsiyon jarayonlardan samarali foydalanish imkoniyatlari. / 2024-yil 25-oktabr. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, SamISI, 2024.-615 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
S.A.Abduhamidov-kafedra mudiri, dotsent
G.R.Tursunova-kafedra dotsenti v.b.
A.Y.Talibova-kafedra o‘qituvchisi

Nashr uchun mas’ullar:
I.S.Tuxliyev-kafedra professori, i.f.d.
R.S.Amriddinova-kafedra dotsenti, i.f.n.
A.P.Maxmudova-kafedra dotsenti, i.f.f.d.
R.Hayitboyev-kafedra dotsenti v.b.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishning nazariy-metodologik masalalari, raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari, uchinchi renessansni shakllantirishda turizmning rivojlanishi: muammolar va yechimlar, raqamli hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari, Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversikatsiya qilish tendensiyalari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqolalar o‘rin olgan.

Professor-o‘qituvchilar, talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

Front Office является "лицом" компании, и процесс бронирования-это первый шаг на пути формирования впечатления клиента о сервисе. Важно учитывать предпочтения и пожелания каждого клиента, чтобы сделать его пребывание максимально комфортным. Оперативная обработка бронирований и изменений помогает избежать ошибок и сохранять лояльность клиентов. Ясная и понятная информация об условиях бронирования, стоимости и дополнительных услугах снижает риск недоразумений.

Таким образом, эффективная организация процесса бронирования в Front Office играет решающую роль в создании позитивного опыта клиента и повышении экономической эффективности гостиницы.

Y.P.Urunbayeva-SamISI i.f.f.d., dots
M.I.Umirzoqova -SamISI assisenti

MUZEY TURIZM XIZMATLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Moddiy madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Prezident qarori qabul qilindi . Qarorga muvofiq Madaniyat vazirligining Madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi hamda uning mintaqalararo (mintaqaviy) davlat inspeksiyalari negizida Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros departamenti uning hududiy boshqarmalari tashkil etildi. Departament moddiy madaniy meros, jumladan, arxeologiya merosi ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida maxsus vakolatli muassasa hisoblanishi belgilab qo‘yildi.

2019-2021 yillarda moddiy madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targ‘ib qilish va ulardan oqilona foydalanishni tubdan takomillashtirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlandi. Departament qoshida tarix, me’morchilik, moddiy madaniy meros sohasida ilmiy, amaliy tajribaga ega bo‘lgan 11 nafar olim va yuqori malakali mutaxassislardan iborat Ilmiy-ekspert kengash tuzildi. Endilikda, moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk ob’yektlari va ularning qo‘riqlanadigan tegralarida yer qazish, yer tuzish, qurilish, melioratsiya va boshqa xo‘jalik ishlari, asrashga doir ishlarni amalga oshirish hamda ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar o‘tkazishga oid loyihalar Ilmiy-ekspert kengash bilan kelishilishi lozim, bunda uning xulosasi Departament uchun majburiy hisoblanadi.

Madaniy meros jamg‘armasi tashkil etilib, uni shakllantirish manbalari belgilab qo‘yildi.

Buxoro davlat badiiy-me’moriy muzey-qo‘riqxonasi, Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me’moriy va badiiy muzey-qo‘riqxonasi, Xiva «Ichan qal’a» davlat muzey-qo‘riqxonasi tegishlicha «Buxoro», «Samarqand», «Ichan qal’a» davlat muzey-qo‘riqxonalari etib qayta nomlandi.Navoiy, Qashqadaryo,

Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida tegishlicha «Sarmishsoy», «Shahrisabz», «Termiz» va «Qo‘qon» davlat muzey-qo‘riqxonalarini tashkil etiladi.

Qarorga ko‘ra YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga ko‘ra kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar hisoblanadi hamda ularda rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari Departament hamda YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshiriladi.Bunda moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk ob’yektlari milliy ro‘yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Davlat ko‘chmas mulki hisoblangan moddiy madaniy meros ob’yektlarini operativ boshqaruv huquqi asosida yoki tekin foydalanish huquqi asosida biriktirish Prezident va Vazirlar Mahkamasi qarori asosida amalga oshiriladi.

Moddiy madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish bo‘yicha jamoatchi inspektorlar faoliyati tashkil etiladi, ularning qonun hujjatlari buzilishiga oid murojaatlari Departament yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan majburiy tartibda davlat nazorati shaklida tekshiriladi, bunda ma’muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat aniqlansa, jamoatchi inspektorlar Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

O‘zbekistonda Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida yangidan tashkil etiladigan «Sarmishsoy», «Shahrisabz», «Termiz» va «Qo‘qon» davlat muzey-qo‘riqxonalaridan muzey turizmida foydalanish tadqiqotlarini amalga oshirishimiz lozim.

Tadqiqotlar natijalari bo‘yicha xulosa qilganimizda O‘zbekistonda muzey turizmini tashkil qilish va rivojlantirishda muzeylarimizdan foydalanishni quyidagi 2 yo‘nalishda amalga oshirish maqsadli bo‘ladi:

1.Ichki muzey turizmida muzeylardan foydalanishning axborot-reklamalari va ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish.

2.Xalqaro muzey turizmida muzeylardan foydalanishning axborot-reklamalari va ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish.

Ichki muzey turizmida muzeylardan foydalanishning axborot-reklamalari va ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish ancha muammoli masala hisoblanadi.Bu yo‘nalishda dastlab ichki turizm bozoriga axborot-reklamalarini chiqarishimiz talab qilinadi. Chunki hozirgi kunda muzeylarga ekskursiyalarni tashkil qilish ancha sustlashgan. Muzeylarga ekskursiyalar tashkil qilish sobiq ittifoq davrida davlat mablag‘lari hisobidan amalga oshirilib, bu ekskursiyalarga maktab ta’limi dagi fanlar bo‘yicha asosan maktab o‘quvchilari ishtirok etishardi. O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi erkin bozor tizimiga o‘tish davrida davlat byudjeti hisobidan maktab o‘quvchilarining ekskursiyalarga chiqishini tashkil qilish butunlay to‘xtab qoldi.

Sababi muzeylar ekskursiyalarini ichki turizmda ham, xalqaro turizmda ham tashkil qilish muammolari bilan shug‘ullanuvchi maxsus turistik firmalar, turistik tashkilotlar hanuzgcha tashkil qilingan emas. Bu holatning asosiy sabablari muzeylar ma’muriyatining o‘quv dasturlari bo‘yicha muzeylarga

ekskursiyalarni tashkil qilishda davlat organlari va maktablar boshqaruvlari bilan umuman hamkorlikni to‘xtatib qo‘yganligi hisoblanadi.

Ikkinchidan, muzeylarning rahbariyati to hozirgacha o‘zlarining rahbarligidagi muzeylarning faoliyatlari haqida reklamalarni, muzeylar bilan tanishtiruvchi teleradio yoki davriy matbuotlarda chiqishlarni qoniqarli amalga oshirishgan emas. Bu juda taajubli hol hisoblanadi. Chunki muzeylardagi turli-tuman ma’lumotlar boshqa birorta tashkilotda yo‘q hisoblanadi. Uchinchidan, muzeylarda ishlovchilar boshqalarga nisbatan ancha bilimli, ehtirosli, ta’sirchan kishilardir. Chet davlatlarda muzeylarning xodimlari qandaydir kichik elementlar yoki oddiy voqe’likga ega bo‘lgan manbaalarni shov-shuv darajalarida ko‘tarib chiqishadi. Natijada muzeylarga ommaviy turistik oqim kuchayadi.

Ichki muzey turizmida muzeylar ekskursiyalarini tashkil qilish va rivojlantirish bizningcha quyidagicha bo‘lishi maqsadlidir:

1. Maktab o‘quvchilari uchun muzeylar ekskursiyalari.

2. Maktab o‘qituvchilari uchun muzeylar ekskursiyalari.

3.Alohida fan yo‘nalishlari (tarix, geografiya, biologiya, botanika, adabiyot va boshq.) mutaxassislari uchun muzeylar ekskursiyalari.

4. Olimlar, tadqiqotchilar uchun muzeylar ekskursiyalari.

5. Universitet, institut va kollej talablari uchun o‘rganilayotgan fanlar bo‘yicha muzeylar ekskursiyalari.

6. Kattalar uchun dam olishda-bilim olish muzey ekskursiyalari.

7. «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» ekskursiyalari.

O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Ichki turizmni jadal rivoj lantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori Vatanimizda ichki turizmni rivojlantirishning istiqbolli bosqichini boshladi . O‘zbekistonning milliy turizmini rivojlantirishdagi bu qaror O‘zbekiston xalqlarida o‘z vatanini anglash, bilish va o‘rganish, dam olish, milliy g‘urur va vatanni sevish, unga mehr-muhabbatli bo‘lish, tabiati va tabiati boyliklarini kelajak avlodlari uchun saqlash va muhofaza qilish his-tuyg‘ularini shakllantiradi.

Prezidentimiz mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish haqidagi bu muhim qarorni o‘rganar ekanmiz turizm sohasidagi barcha turistik firmalar va tashkilotlar, ta’lim tizimidagi barcha faoliyat yo‘nalishlarida samarali tadqiqotlar va samarali ishlash uchun shu kunning dolzarb muammolarini yechishning davlat miqyosidagi dasturlari, ko‘rsatmalari va yo‘l-yo‘riqlari, imkoniyatlari yaratilganligini, berilganligini ko‘ramiz. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanish, turizm sohasida faoliyat yuritayotganligimizdan bu qarorning bajarilishiga o‘z hissamizni qo‘shishga ma’sul ekanligimizni anglaymiz.

Bu maqsadga erishish uchun vatanimizdagi barcha muzeylarning viloyatlar, tumanlar va shaharlar kesimida to‘liq tarif va tavsiflari (manzili, turi, faoliyati, ish tartibi, yaratilgan sharoitlar, eksponatlar haqidagi ma’lumotlar va boshq..) katalogini, internet bazasini yaratishimiz talab qilinadi. Bu ma’lumotlar bo‘yicha muzey ekskursiyalarini tashkil qiluvchilar, turizmdagi tadbirkorlar, maktablar, liseylar, kollejlar, institut va universitetlarning rahbariyatlari

mamlakatimizning har qanday muzeylariga qisqa vaqtlarda muzey ekskursiyalarini tashkil qilish imkoniyatlarini beradi.

Ikkinchidan, muzeylarimizning rahbarlari, xodimlari aholi markazlariga, tashkilotlarga, ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga chiqishlari, kelishuvlar va shartnomalar tuzishi, davra suhbatlarini tashkil qilishlari hozirgi erkin bozorning zarur harakatlaridan hisoblanadi.

Uchinchidan, qishloqlardagi maktablarning rahbariyatlari qishloq lardagi iqtisodiy jihatdan to‘liq bo‘lgan fermerlar, ishbilarmonlar va boylarni o‘z qishlog‘ining ertangi avlodi bo‘lgan maktab o‘quvchilarini loaqal vatanimizning birorta shaharidagi muzeylarga bepul ekskursiyalar tashkil qilib berishga chaqirishi lozim.

To‘rtinchidan, ta’limning barcha tizimlariga muzeylarni ko‘rsatish talab qilinadigan fanlarning dasturlariga “Muzeylar-bilim maskani”, “Muzeylar tariximiz”, “O‘zbekiston davlatining tarixiy taraqqiyoti”, “O‘zbekistonning hayvonot olami”, “O‘zbekistonning o‘simliklar dunyosi”, “O‘zbekistonning mashhur farzandlari”,“O‘zbekistonning mashhur adiblari” kabi mavzular kiritilishi ham yosh avlodlarimizning vatanimizga bo‘lgan mehrini, g‘ururini, bilimini oshiradi, komillikga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va maьrifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. Xalk so‘zi 2023 yil 23 dekabr, №274(8617) 2 bet.
2. Muxammedov M.M., Urunbayeva Yu.P. va boshqalar “Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari”-S.: Zarafshon 2017.-299 b.
3. Urunbayeva Yu.P. Xizmat ko‘rsatish sohasi va aholi turmush darajasi: o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanish istiqbollari. Monografiya.Toshkent.: «FAN», 2013.-156 b.
4. Urunbayeva Yu.P. Abdurashidov Xurshid MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISH DAVR TALABI PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 www.pedagogs.uz 50 Volume-56, Issue-1, April-2024
5. Urunbayeva Yu. P. Muzey turizmini rivojlantirish-aholi farovonligini oshirishning asosiy omili. SERVIS, ilmiy-amaliy j., Samarqand, 2024,2\1 son,107-111 b.
6. Urunbayeva Yu.P. O‘zbekistonda yangi-muzey turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. SERVIS, ilmiy-amaliy j., Samarqand, 2024,2\1 son, 83-87 b.
7. Urunbayeva Yu. P. Yangi O‘zbekistonda muzey turizimini rivojlantirishning nazariy asoslari. BIZNES –EKSPERT №3, 2024 8-12 b, Toshkent shahar.

8. Urunbayeva Yu.P. Muzey turizmi va aholi turmush darajasi. BIZNES –EKSPERT №4, 2024 58-64 b, Toshkent shahar.
9. Urunbayeva Yu.P. Aholining ma`naviy ma'rifiy qadriyatlari dunyosini boyitish, yosh avlodni vatanga muxabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muzeylarning ahamiyati. "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnal №2(16)2024.
10. Urunbayeva Yu.P. Iqtisodiyot tarkibiga turizmning yangi turlarini kiritishning ahamiyati. "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnal. №3(17) 2024.

Б.А.Рузиев-докторант кафедры Туризма и маркетинга КарГУ

АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОЙ СИТУАЦИИ САФАРИ-ТУРИЗМА В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida safari turizmining bugungi holati, uning mavjud salohiyatidan foydalanilmayotganligi tahlil qilinib, rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Grand View Research, Qashqadaryo, bioxilma-xillik, Safari turizmi, yovvoyi hayvonlar, ekosafari, rafting.

Abstract: This article presents an analysis of the current state of safari tourism in Kashkadarya region, the lack of use of its existing potential, and suggestions for development opportunities.

Key words: Grand View Research, Kashkadarya, biodiversity, Safari tourism, wild animals, ecosafari, rafting.

Сафари-туризм, характеризующийся уникальным сочетанием встреч с дикой природой и исследованием природы, играет важную роль в туристической индустрии во всем мире. Гранд Вью Рисерч, Инк. Согласно новому исследовательскому отчету, проведенному[35]. Сафари-туризм внес значительный вклад в повышение привлекательности и эффективности туристических ресурсов. Кашкадарьинская область обладает богатым биоразнообразием и захватывающими пейзажами, что имеет большой потенциал сделать эту территорию идеальным местом для сафари, но мы видим, что этому пренебрегают. Данная научная статья направлена на анализ современного состояния сафари-туризма в Кашкадарьинской области, акцентируя внимание на его особенностях, проблемах и возможностях развития.

Чтобы полностью понять важность биологического разнообразия для развития страны и ее народа, необходимо сначала знать смысл и суть этого понятия. «Что такое биоразнообразие?» большинство людей отвечают «природа» или «дикие животные». Однако биоразнообразие-гораздо более широкое понятие, включающее все виды жизни и все природные системы на нашей планете. [36]Наблюдение за этими природными системами во время путешествий называется сафари-туризмом.

[35]MarketResearch.com 22.10.2023 - 133
[36] Узбекистан Республика экология, окружающая среда защита делать и климат изменять министерство